




# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 62-224-64-99  
[www.xorazmstat.uz](http://www.xorazmstat.uz)

## Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalaridan 9 633,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 104,4 % ni tashkil etdi.


**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



### Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari




(2023- yil 1- iyul holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 995 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 959 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 526 ta va barchasi kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.




## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 9 270,4 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,2 % ni tashkil etdi.





Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 68,8 %ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 3,4 %ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 18,8 %ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining 12,6 %ga o'sishi kuzatildi.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalaridan tomonidan 2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,7 mlrd. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,03 % ga to'g'ri keldi.




## Xorazm viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

**Ishlab chiqaradigan sanoat** bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 270,4 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,2 % ini tashkil etdi.




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,06 % ni (2022- yilning yanvar-iyun oylarida – 0,13 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 38,6 % (43,0 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 5,1 % (3,5 %), quyi texnologiyali 52,5 % (50,0 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 41,1 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,2 % (2022- yilning yanvar-iyun oyilarga nisbatan fizik hajm indeksi 87,1 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,3 % (2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 30,9 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,7 %)ni, yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 1,6 % (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,2 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 45 374,8 tonna (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 33,9 % ga oshgan), paxta chigiti 77 065,9 tonna (2022- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 14,0 % ga oshgan), 13 601,7 tonna paxtadan yigirilgan ip (13,0 % kamaygan), 119 124,2 tonna shakar (9,8 % kamaygan), o'simlik yog'i 3 288,7 tonna (48,8 % kamaygan), paxta linti 4 664,7 tonna (15,9 % oshgan), uzum vinosi 360,9 ming litr (25,1 % oshgan), 78,2 ming litr aroq (59,9 % oshgan) hamda 26 966,2 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (42,1 % kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
O'simlik yog'i, tonna	6 429,4	3 288,7	-3 140,7
Shakar, tonna	132 072,9	119 124,2	- 12 948,7
Gilam, ming kv.m	816,0	1208,0	392,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	46 541,2	26 966,2	-19 575,0
Paxta tolasi, tonna	33 876,1	45 374,8	11 498,7

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Yengil avtomobillar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-iyun oylarida)


**Yengil avtomobillar** – umumiy yoki maxsus yengil avtomobillarga bo‘linib, 2 kishidan 8 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 34 944 dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. Yengil avtomobillari ishlab chiqarishda o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,6 % ga kamayish kuzatildi.



## Maxsus yengil avtomobillar (2023- yilning yanvar-iyun oylarida)

Viloyatda 2023- yilning yanvar-iyun oylarida yirik korxonalar bo‘yicha jami 11 361 dona maxsus yengil avtomobil ishlab chiqarilib, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 foizga ko‘payganligini ko‘rish mumkin.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 38,6 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 88,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 579,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

**Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish** – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 25,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 250,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 22,0 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,4 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 2 041,7 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

**Ichimliklar ishlab chiqarish** – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 8,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 169,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 826,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 915,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,8 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 54,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

**Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish** – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 121,2 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 40,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

**Elektr uskunalari ishlab chiqarish** – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo‘lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,5 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 228,0 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 48,7 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 302,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ini) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


2023- yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 18,8 %ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	175,8	677,9	502,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	45,1	61,3	16,2
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	922 658,0	651 072,0	- 271 586,0

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 58,5 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.




## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 8,4 %ga oshganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,7 %ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 7,5 %ga kamayganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyun	2023- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming.so'm	3 094 344,0	2 793 755,0	-300 589
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	62 849 805,0	68 132 798,0	5 282 993,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	10 500 081,0	9 707 643,0	- 792 438,0

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 842,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,1 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 15,6 % ni tashkil etgan.



## Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish


**Isteʼmol tovarlari** – birinchi navbatda, shaxsiy isteʼmol uchun yoki foyda olish bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-iyun oylarida isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 5 766,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 100,3 %, uning jami sanoatdagi ulushi 59,9 % ga toʻgʻri keldi.




## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 4 902,7 ming so'm (2022- yil yanvar-iyun 4 317,2 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,6 % o'sishni ko'rsatmoqda.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish



Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 934,7 ming so'm bo'lgani holda, (2022- yil yanvar-iyun 2 724,4 ming so'm), o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,5 % o'sishni ko'rsatmoqda.





## Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 3 125,9 mlrd so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,1 % ni tashkil etdi.





Nooziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi



Oziq-ovqat mahsulotlarini jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 2 632,5 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 25,1 % ga oshdi.



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 99 ta loyiha bo'yicha 576,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 3,9 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi. Shu bilan birga 61 ta yangi ish o'rinlari yaratildi

